AXBOROT KUTUBXONA MUASSASALARIDA FOYDALANUVCHILARGA XIZMAT KO‘RSATISHNING INNOVASION YO‘LLARI



Djabbarova Nilufar Isakjanovna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Kutubxona –axborot faoliyati” yo’nalishi sirtqi 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jizzax viloyatidagi axborot –kutubxona muassasalarida foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning axborot texnologiyalari asosida innovasion xizmat ko‘rsatish yo‘llari haqida viloyat axborot-kutubxona markazi misolida aytib o‘tilgan

Kalit so‘zi: axborot - kutubxona markazi, axborot-resurs markazi, axborot –kutubxona muassasalari, axborot texnologiyalari, innovatsiya, ijtimoiy tarmoq, elektron resurslar.

Аннотация

В данной статье информационно-библиотечным учреждениям Джизакской области рассказывается об инновационных способах оказания услуг пользователям на основе информационных технологий на примере областного информационно-библиотечного центра.

Ключевые слова: информационно-библиотечный центр, информационно-ресурсный центр, информационно-библиотечные учреждения, информационные технологии, инновации, социальная сеть, электронные ресурсы.

Annotation

In this article, information-library institutions in the Jizzakh region are told about innovative ways of providing services to users based on information technologies on the example of the regional information-library center.

Keywords: information-library center, information-resource center, information-library institutions, information technologies, innovation, social network, electronic resources.

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy soxani islox qilishning xozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jaxon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan baxramand bo‘lishini ta’minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishning sifat jixatidan yangi tizimni yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot kommunikatsiya texnalogiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu esa axborot-kubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, fondlarni to‘ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy - tadqiqot va tashkiliy – uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish jiddiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Bugun axborot texnologiyalari kirib bormagan soha qolmadi. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy axborot texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylanib borayotir. Shu bois yurtimizda iqtisodiy -barqarorlik, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun barcha jabhaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Axborot texnalogiyalarini tezlik bilan rivojlanishi axborot kutubxona muassasalarni zimmasiga yanada ko'proq, dolzarb vazifalarni yuklamoqda. Bu o'rinda texnika bilan ham bog'liq bo'lmagan sohalar, jumladan, kutubxonalar, adabiyot va san'at sohalari kabi yo'nalishlar ham o'z faoliyatini zamonaviy texnalogiyalar bilan uyg'unlashtirmoqda.

Hozirgi kunda internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlar turmush tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Shu holni inobatga olgan holda yurtimizdagi barcha axborot-kutubxona muassasalari o'zlarida mavjud bo'lgan fondlarni elektron shakliga o'tkazish, shu orqali aholiga masofadan turib axborot – kutubxona xizmatlarini ko'rsatishni kengaytirishga katta e'tibor qaratib, innovasion yondashuv sifatida yuksak baholanib kelinmoqda.

Bugungi kunda elektron kutubxonalarni tashkil etish, ish jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish, sohaga zamonaviy axborot – texnologiyalarini tatbiq etgan holda rivojlantirish ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, fondlarning elektron nusxalarini yaratish hamda foydalanuvchilarga elektron resurslarni masofadan yetkazib berish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Axborot – texnologiyalarining kundan-kunga rivojlanayotganligi axborot-kutubxona faoliyatini yangi yo'nalishda taraqqiy etishida hamda foydalanuvchilarga innovasion xizmat ko'rsatish turlarini ko'rsatishda, elektron axborot almashinuvini amalga oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Jizzax viloyatida 1 ta Sharof Rashidov nomli viloyat axborot-kutubxona markazi, 12 ta tuman axborot-kutubxona markazlari, viloyat Bolalar kutubxonasi – 1 ta, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi umumta'lim va ixtisoslashgan maktablarda 574 ta hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalarida – 4 ta axborot-resurs markazlari, Ma'daniyat boshqarmasi tasarrufidagi Ko'zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari – 9 ta, Sog'liqni saqlash boshqarmasi tasarrufidagi tibbiyot birlashmalarida – 9 ta, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi professional ta'lim tizimi bo'yicha – 77 ta kutubxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Jizzax viloyatida 687 tadan ortiq axborot –kutubxona muassasalari keng kitobxonlar xizmat ko'rsatib kelmoqda. Viloyatdagi axborot –kutubxona muassasalari avtomatlashtirilgan ish joylarini yaratish, electron resurslar orqali kitobxonlarga xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Viloyatdagi Sharof Rashidov nomidagi Jizzax viloyat Axborot –kutubxona markazi misolida ko'radigan bo'lsak (keyingi o'rinlarda-Viloyat AKM) binosi 1970 yilda qurilib ishga tushirilgan (2005 yilda qayta ta'mirlanib, moslashtirilgan).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyovning 2019 yil 30-31 yanvar kunlari Jizzax viloyatiga tashrifi chog'ida belgilangan topshiriqlar hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 noyabrdagi "Byudjet tizimining byudjeti hisobidan 2021 yilda amalga oshirilishi nazarda tutilgan ob'yektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish to'g'risida"gi №145-son Rayosat majlisi bayoniga asosan viloyat axborot-kutubxona markazi binosi qurilishi 2021 yil Investisiya dasturiga kiritilib, 7 694 900(yetti milliard olti yuz to'qson to'rt million to'qqiz yuz ming) so'm miqdorida qurilish ishlari amalga oshirildi. Viloyat axborot-kutubxona makazining yangi binosi aholi uchun 2022 yil O'zbekiston Respublika Mustaqilligi bayrami arafasida 27 avgust kuni tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

Hozirda axborot - kutubxona markazi uch qavatdan iborat bo'lib, bir vaqtning o'zida 220 nafar kitobxonlarni qabul qiladi. Axborot –kutubxona markazida 2 ta o'quv zali, erkin foydalanuvchilar uchun zal, xuquqiy axborot xonasi va 1 ta elektron o'quv zallari kitobxonlar xizmatiga tayyor.

Shuningdek, 24 o‘rinli “Book Cafe” va 2 mingga yaqin yangi adabiyotlar bilan ta’minlangan bolalar bo‘limi tashkil etildi.

Axborot – kutubxona markazida kitobxonlarga Rossiyaning IDLOGIC firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan elektron formulyarlar asosida ishlaydigan adabiyotlarni qabul qilish, muddatini uzaytirish hamda 2 ta adabiyotlarni olish, muddatini uzaytirish, adabiyotlarni berish funksiyalarini bajaradigan zamonaviy apparatlar asosida xizmat ko‘rsatish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.Shulardan UniBook Smart Stand - mustaqil kitob berish stansiyasi,kitob o‘g‘irlanishiga qarshi himoya RFID tizimli – Defender, UniBook HF RFID - Himoyalangan kitob berish qurilmasi va RFID chiplar, UniBook Smart box – kitoblarni qaytarish termini.

Axborot kutubxona muassasalari ish faoliyatlarini avtomatlashtirish jarayonlari elektron kutubxonalar yaratish bo’yicha xam UZNell, catalog.unicat.uz, KULTURA.PRO dasturiy ta’minotlar hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxona tomonidan berilgan Germaniyada ishlab chiqarilgan texnalogiyalar ya’ni skaner, komp‘yuter jamlamalari orqali axborot-kutubxona markazining axborot –kutubxona resurslarini raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Bulardan tashqari axborot texnalogiyalari orqali turli ijtimoiy tarmoqlarda kitobxonlarga yangi innovasion tizimda xizmat ko‘rsatish usullari yo‘lga qo‘yilgan.

http://jizzakh.natlib.uz
https://t.me/JIZZAX_KUTUBXONA
https://www.facebook.com/jizzax.akm
https://www.instagram.com/jizzaxakm/
https://www.youtube.com/channel/UC8TTiBdJpH76yxX2v9R8_9Q?view_as=subscriber

Axborot – kutubxona markazining elektron o‘quv zali sektori tomonidan SPRINGER, Ebscoxost, ProQuest – xorijiy ilmiy-ta’limiy bazalar faoliyati orqali kitobxonlarga xizmat ko’rsatish ko’lami kengaytirilgan.

Har qanday yangilik ham bir kun eskiradi. Biroq insoniyatning ming-ming yillar davomida qo‘lga kiritgan aqliy hamda fikriy durdonalarini o‘zida jamlagan kitoblar aslo eskirmaydi.

Binobarin, kitob-hamisha ilm-ma’rifat, adab va axloq manbai bo‘lib kelgan. Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham kitobdan ko‘ra qudratliroq vosita yo‘q.

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy kitoblarning bosma nashrlari va ularning elektron ko‘rinishi ham o‘z ahamiyatiga ega va talab darajasidadir. Zero, kitobni qaysi shaklda o‘qish emas, mutolaa qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent : “O‘zbekiston” NMIU, 2017.- 353 b.

2.O‘zbekistan Respublikasining qonuni. Axborog-kutubxona faoliyati to‘g‘risida //Xalq so‘zi. 2011. 14 aprel.

3.“Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyun Qarori //Toshkent oqshomi. – 2002. – 10 iyun.

4.Karimov U. Elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyasi va manbalari: Monografiya. - Toshkent: Fan, 2006. - 193 b

5.Sarvar o’g’li, M. S. (2024). DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINING VA UNING MOXIYATI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 8(4), 192-196.

6.Махкамов, Ш. (2024). Davlat boshqaruv tizimining vujudga kelishi hamda davlat va uning moxiyati. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1), 379-382.

7. www.lex.uz
8. www.natlib.uz